Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
<i>Абидова М. И., Абидова Д. М.</i>	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
<i>Амитова Майисия Рахмателлаевна</i>	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
<i>Гилязиева Насиба Михайловна</i>	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
<i>Ислямова Сония Юнусовна</i>	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
<i>У. Ш. Салимов</i>	

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Bovanova Umida Abduvahobovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi v.b dotsent

Ashurova Dildora Baxtiyor qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning sifati va samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Bugungi raqamli davrda AKT o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinib, ularning o'quv jarayonidagi imkoniyatlari hamda amaliy ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini oshirish, metodik yondashuvlarni takomillashtirish hamda raqamli pedagogik muhitni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tizim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, AKT, strategik vositalar – interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, multimedia resurslari, ta'limiy platformalar, raqamli texnologiya, baholash, vosita, o'quv jarayoni, an'anaviy ta'lim, usul, integratsiya.

Abstract: This article analyzes the factors affecting the quality and effectiveness of the use of information and communication technologies (ICT) in primary education. In today's digital era, ICT is an integral part of the educational process and serves as an important tool for activating students' cognitive activity, developing independent thinking, and enhancing creative skills. The article examines the impact of the use of information and communication technologies on the quality and effectiveness of primary education from a scientific and pedagogical perspective, highlighting their potential and practical significance in the educational process. It also provides suggestions and recommendations for improving teachers' ICT competence, enhancing methodological approaches, and developing a digital pedagogical environment.

Key words: education, system, information and communication technologies, ICT, strategic tools – interactive presentations, electronic textbooks, multimedia resources, educational platforms, digital technology, assessment, tool, learning process, traditional education, method, integration.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы, влияющие на качество и эффективность использования информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процессе начального образования. В современную цифровую эпоху ИКТ являются неотъемлемой частью образовательного процесса и важным инструментом активизации познавательной деятельности учащихся, развития самостоятельного мышления и творческих навыков. В статье анализируется влияние использования информационно-коммуникационных технологий на качество и эффективность начального образования с научно-педагогической точки зрения, подчёркивается их потенциал и практическое значение в образовательном процессе. Также предлагаются рекомендации по повышению компетентности учителей в области ИКТ, совершенствованию методических подходов и развитию цифровой педагогической среды.

Ключевые слова: образование, система, информационно-коммуникационные технологии, ИКТ, стратегические инструменты – интерактивные презентации, электронные учебники, мультимедийные ресурсы, образовательные платформы, цифровые технологии, оценивание, инструмент, учебный процесс, традиционное образование, метод, интеграция.



KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Globallashtirish va raqamli jamiyat sharoitida ta'lim jarayonining mazmuni, shakl va uslublari tubdan yangilanib, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ehtiyojlari va qiziqishlari o'zgarib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son'li "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unda IT-ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va sertifikatlashtirish tizimini kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Ushbu qarorlar boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi. Prezidentning "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT industriyasi bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori AKTdan foydalanishning metodik asoslarini shakllantirish, elektron darsliklar va ta'limiy platformalarni keng joriy etish bo'yicha vazifalarni belgilaydi. Ushbu qaror o'qituvchilarni malaka oshirish kurslariga jalb qilish va ularning texnologik savodxonligini oshirishni ham nazarda tutadi. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ta'limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, elektron xizmatlar va interaktiv resurslardan foydalanishni kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bu esa boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishini, darsdagi faolligi va qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur farmon va qarorlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maktablarda samarali joriy etish, ta'limiy resurslarni yangilash hamda o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish masalalari muhim o'rin tutadi. Ushbu hujjatlar natijasida ta'lim sifati sezilarli darajada oshishi, dars jarayoni interaktiv va qiziqarli bo'lishi, shuningdek, o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanishi mumkin. Umuman olganda, ushbu qarorlar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini samarali tashkil etish hamda boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik hujjatlar sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, AKTni dars jarayoniga integratsiya qilishni ilmiy asoslash va amaliy natijalarni muntazam kuzatib borish imkonini beradi. Boshlang'ich ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlash o'quvchilarda tayanch bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonda AKT vositalari - interaktiv taqdimotlar, elektron darsliklar, multimediyalar, ta'limiy platformalar va raqamli baholash vositalari o'quv jarayonini jonlantirib, an'anaviy ta'lim usullarini samarali tarzda boyitishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishga, bilimlarni ongli va mustahkam egallashiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadga muvofiq foydalanish pedagogdan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni, zamonaviy yondashuv va ijodiy fikrlashni talab etadi. AKTni ta'lim jarayoniga puxta integratsiya qilish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual imkoniyatlarini hisobga olish, differensial va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati kengayadi. Natijada ta'lim sifati va samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda boshlang'ich sinf bosqichida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda yangi pedagogik metodlar, raqamli vositalar va interaktiv yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu tadqiqot axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida kompleks tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullarning uyg'unligi ta'minlanib, o'rganilayotgan muammoning mazmuni chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika va ta'lim texnologiyalari sohasidagi ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari hamda boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanishga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Ushbu manbalar asosida muammoning dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlashtirildi. Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, so'rovnoma hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali boshlang'ich sinflarda AKTdan foydalanilgan darslarning o'quv jarayoniga ta'siri, o'quvchilarning faolligi va bilimlarni o'zlashtirish darajasi o'rganildi. Suhbat va so'rovnoma metodlari yordamida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKTdan foydalanish bo'yicha tajribasi, munosabati hamda duch kelayotgan muammolari aniqlandi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasi, o'quv motivatsiyasi va dars jarayonidagi ishtiroki AKT qo'llanilgan hamda an'anaviy ta'lim asosida olib borilgan mashg'ulotlar orqali taqqoslab tahlil qilindi. Tajriba natijalari ta'lim samaradorligini aniqlashda muhim ko'rsatkich sifatida xizmat qildi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirishda taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish hamda tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari AKTdan boshlang'ich ta'lim jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish ta'lim sifatini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.



1-jadval: Tadqiqot metodlari va ularning funksiyasi

Metod	Vazifasi	Natija
Pedagogik kuzatish	O'quvchilarning darsdagi faolligi va AKTdan foydalanish darajasini aniqlash	O'quv jarayonining samaradorligi baholanadi
Suhbat va so'rovnomalar	O'qituvchilarning tajribasi va muammolarini aniqlash	AKTni tatbiq etish amaliyoti o'rganiladi
Pedagogik tajriba-sinov	Bilim darajasini AKTdan foydalangan va an'anaviy darslarda taqqoslash	Natijalar empirik asosda ko'rsatiladi
Taqqoslash va tahlil	Ma'lumotlarni sistemlashtirish va natijalarni baholash	Xulosa chiqarish va takliflar ishlab chiqish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) boshlang'ich ta'limda foydalanish o'quv jarayonini vizuallashtirish, darslarning qiziqarliligini oshirish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. AKT darslarni interaktiv, rang-barang va tushunarli qilish orqali o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini yuksaltiradi. AKTdan foydalanishning ta'lim sifatiga asosiy ta'siri quyidagilardan iborat:

- vizual va interaktiv ta'lim – multimedia vositalari (videolar, taqdimotlar) murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi;
- motivatsiyani oshirish – o'yin shaklidagi dasturlar va interaktiv topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish – badiiy-ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda raqamli vositalar muhim o'rin tutadi;
- o'qituvchi mahorati – o'qituvchilarning AKTni qo'llashi darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitishga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalasi so'nggi yillarda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda AKTning ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rnini turli jihatlardan tahlil qilingan. Xorijiy pedagogik adabiyotlarda AKTning ta'lim jarayoniga integratsiyasi konstruktivistik yondashuv asosida talqin etilib, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida baholanadi. 2026-yilda Hindistonda bo'lib o'tadigan "Digital Inclusion Summit" kabi xalqaro tadbirlarda ta'limda texnologiyalarning inson markazli yondashuv asosida qo'llanilishi zarurligi ta'kidlanmoqda, ya'ni texnologiya ta'limni samaraliroq qilish bilan birga teng imkoniyat yaratishga ham xizmat qilishi kerakligi qayd etilmoqda. Tadqiqotchilar raqamli ta'lim resurslari, interaktiv platformalar va multimedia vositalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, bilimlarni vizual va amaliy tarzda o'zlashtirishga yordam berishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, AKT asosidagi ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish imkonini berishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish pedagogik jarayonni modernizatsiya qilishning muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi. Ularning fikricha, elektron darsliklar, ta'limiy dasturlar va interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirish bilan birga mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, AKTdan foydalanishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi va texnologik savodxonligi hal qiluvchi omil ekanligi alohida ta'kidlanadi.

Ba'zi tadqiqotlarda AKTdan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar ham yoritilgan. Jumladan, texnik vositalarning yetarli emasligi, raqamli resurslardan noto'g'ri foydalanish hamda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olmaslik ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi qayd etilgan. Shu sababli olimlar AKTni boshlang'ich ta'lim jarayoniga bosqichma-bosqich va ilmiy asoslangan holda joriy etish zarurligini ilgari suradilar. 2025-yilda UNESCO va bir qator ta'lim tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan konferensiyada zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (AI) va raqamli vositalar ta'lim jarayonlarini tubdan o'zgartirayotgani qayd etildi. Xususan, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir, dars rejalari hamda amaliy metodlar texnologiyalar bilan birlashtirilmoqda, bu esa pedagoglarga yangi imkoniyatlar yaratadi va dars samaradorligini oshiradi. MAVZUGA oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, mazkur masala chuqur ilmiy tahlil va amaliy tajribani talab etadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar natijalari AKTdan foydalanishning metodik jihatlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi model boshlang'ich ta'lim darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonini tizimli ravishda aks ettiradi:



Model tavsifi:

1. O'qituvchi dars jarayonini rejalashtiradi va AKT vositalarini maqsadga muvofiq tanlaydi;
2. AKT vositalari o'quv materialini vizual, interaktiv va tushunarli shaklda taqdim etadi;
3. O'quvchi faol ishtirok etadi, bilimlarni mustaqil o'zlashtiradi;
4. Natijada ta'lim sifati va samaradorligi oshadi.

Mazkur AKT modeli boshlang'ich ta'limda dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. AKT modeli asosida dars ishlanmasi.

Fan: Ona tili.

Sinf: 2-sinf.

Mavzu: Gap va uning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Darsning maqsadi:

- o'quvchilarda gap tushunchasini shakllantirish;
- AKT vositalari yordamida mavzuni tushunarli va qiziqarli bayon etish;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligini oshirish.

Darsda foydalaniladigan AKT vositalari:

- interaktiv doska;
- slayd-taqdimot;
- qisqa animatsion video;
- onlayn testlar, raqamli platformalardan foydalanilgan didaktik o'yinlar (yoki elektron topshiriqlar).

2-jadval: Dars jarayoni (AKT modeli asosida)

Bosqich	O'qituvchi faoliyati	AKT vositasi	O'quvchi faoliyati	Natija
Tashkiliy qism	Darsni boshlaydi, mavzuga yo'naltiradi	Slayd (motivatsion rasm)	Diqqatni jamlaydi	Darsga tayyorgarlik
Yangi mavzu	Gap haqida tushuntiradi	Taqdimot, video	Tomosha qiladi, savol beradi	Tushuncha shakllanadi
Mustahkamlash	Topshiriqlar beradi	Interaktiv mashq	Faol ishtirok etadi	Bilim mustahkamlanadi
Baholash	Savollar beradi	Elektron test	Javob beradi	Bilim baholanadi
Yakun	Xulosa qiladi	Slayd	Fikr bildiradi	Dars yakunlanadi

Qanday natija kutish mumkin:

- o'quvchilar gapni aniqlay oladi;
- tinish belgilarini to'g'ri qo'llaydi;
- darsga qiziqish va faollik oshadi.

Mazkur dars ishlanmasi O'qituvchi → AKT → O'quvchi → Natija modeli asosida tashkil etilib, boshlang'ich ta'limda AKTdan samarali foydalanish imkoniyatlarini namoyon etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarni o'zlashtirishini yengillashtiradi, barcha o'quvchilar bir vaqtda qatnashadi, barcha o'quvchilar bir vaqtda baholanadi, ta'lim sifati va samaradorligini



oshiradi hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi. Va yana shuni ta'kidlash mumkinki, tadqiqot jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilinganda, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari AKT qo'llanilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi va darsdagi faolligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, AKT asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning mavzuga qiziqishi kuchayib, ularning faol ishtiroki ta'minlandi. Interaktiv taqdimotlar, vizual materiallar va elektron topshiriqlar o'quvchilarning abstrakt tushunchalarni osonroq anglashiga yordam berdi. Bu esa bilimlarni mustahkamlash va amaliy qo'llash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'quv jarayonida o'quvchilarning bilim darajasi AKTdan foydalanilgan va an'anaviy usulda o'tilgan mashg'ulotlar orqali taqqoslab o'rganildi. Natijalar AKTdan foydalangan guruh o'quvchilarida o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori ekanligini ko'rsatdi. Shuningdek, ushbu guruhda mustaqil fikrlash, savol-javoblarda faollik va ijodiy yondashuv elementlari yaqqol namoyon bo'ldi. So'rovnoma va suhbat natijalari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aksariyati AKTdan foydalanish dars samaradorligini oshirishini e'tirof etishini ko'rsatdi. O'qituvchilar AKT vositalari yordamida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, differensial topshiriqlar berish va tezkor baholash imkoniyatlari kengayganini ta'kidladilar. Shu bilan birga, ayrim holatlarda texnik imkoniyatlarning cheklanganligi va vaqt taqsimotidagi muammolar mavjudligi qayd etildi. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadga muvofiq va tizimli foydalanish boshlang'ich ta'lim sifati oshirish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish hamda o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari AKTni boshlang'ich ta'lim jarayoniga ilmiy asoslangan holda joriy etish zarurligini yana bir bor tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. 2026-yilda maktab ta'limida eng muhim yo'nalishlardan biri – texnologiya va AKTdan faqat texnik qo'llanma sifatida emas, balki ta'lim sifati va o'quvchilarning ishtirokini oshirish vositasi sifatida foydalanishdir. Ta'lim strategiyasida texnologiya o'quv jarayoniga moslashtirilgan ko'rinishda qo'llanilishi, faqat qurilmalar bilan emas, balki pedagogik maqsadlar bilan uyg'un holda amalga oshirilishi muhim deb ko'rilmogda. AKT vositalari asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirib, ularning darsdagi faolligi, mustaqil fikrlashi hamda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda interaktiv taqdimotlar, elektron resurslar va raqamli topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lib, ta'lim mazmunini tushunarli va qiziqarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, AKTdan maqsadga muvofiq foydalanish o'qituvchining metodik mahorati va texnologik savodxonligiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Olingan xulosalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: Pedagoglarning AKT bo'yicha malakasini mustahkamlash: O'qituvchilarga AI, raqamli pedagogika va interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha muntazam treninglar tashkil etilishi lozim. Bu nafaqat texnik savodxonlikni oshiradi, balki darsni aniq metodik baholash asosida o'tkazishga yordam beradi. Personalizatsiyalangan o'quv modellarini joriy etish: AI va aqlli LMS (o'quv boshqaruv tizimlari) orqali o'quvchilarning individual o'quv yo'nalishlarini aniqlash va moslashtirish tizimi ishlab chiqilishi lozim. Bunday yondashuv o'quv samaradorligini oshiradi va har bir o'quvchining qobiliyatidan maksimal foydalanishga yordam beradi.

Inklyuziv texnologiyalarni tatbiq etish: Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga moslashtirilgan AKT vositalari va metodikalarini joriy etish – bu nafaqat adolatli ta'lim tamoyiliga xizmat qiladi, balki ta'lim sifati umumiy darajada oshiradi. Raqamli texnologiyalar integratsiyasi uchun strategik hamkorlik: Xalqaro tashkilotlar, xususiylar sektor va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, texnologik innovatsiyalarni test qilish va keng joriy qilish imkoniyatini yaratadi – bunday yondashuv ta'limni tezlik bilan zamonaviylashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarori. 2020-yil 6-noyabr. <https://lex.uz/docs/-5085887>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi" PQ-358-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-7158604>
3. Bovanova U.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik ijobiy munosabatini oshirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati. Toshkent amaliy fanlar universiteti "Ilm-fan taraqqiyoti: muammo va istiqbollari" II an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 17.12.2024.
4. Nishonov Q.X., Yusupov M.T. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
5. Bovanova U.A., Aytbaeva J.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining atrof-muhitga ekologik tarbiyasini oshirishda raqamli texnologiyalarining o'rni. www.in-academy.uz. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15220404>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.